



**Tadqiqot UZ**



**ЎЗБЕКИСТОН  
ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ  
ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАРИ  
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**2021**

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



Crossref



**30 APREL  
№27**

**CONFERENCES.UZ**

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 27-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
3-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
27-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-3**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
27-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-3**

**ТОШКЕНТ-2021**



**УУК 001 (062)**  
**КБК 72я43**

## **"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]**

**"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар"** мавзусидаги республика 27-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрель 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 25 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **5. Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



### **8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

### **9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

### **10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

### **11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

### **12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

### **13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

### **14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

### **18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

### **19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **21.Кимё фанлари ютуқлари**

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



## **22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

## **23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

## **24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

## **25. География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва ақтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР**

<b>1. Axmedova Oftobxon Ikramovna</b> TARIX DARSLARIDA TARIXIY TASAVVUR VA TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH.....	7
<b>2. Nazarova Nargiza Donaboyevna</b> KARTOGRAFIK TEXNOLOGIYALAR ORQALI TARIXIY BILIM , KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH METODLARI.....	8
<b>3. Sobitova Latofat Ko'chimovna</b> DUKCHI ESHON –YOXUD KAROMATLAR SOHIBI .....	9
<b>4. Ибодуллаева Нафиса Садуллаевна, Искандарова Асолат Сафаровна</b> АБУЛҒОЗИЙ БАҲОДИРХОННИНГ ХИВА ХОНЛИГИ РИВОЖИГА КЎШГАН ХИССАСИ.....	11
<b>5. Искандарова Асолат Сафаровна</b> БЕТАКРОР ВА НОЁБ ИЛМИЙ- МАЪНАВИЙ МЕРОСИМИЗ, КУЧ-ҚУДРАТ ВА ИЛҲОМ МАНБАИ.....	13
<b>6. Aralbaeva Kamshat Kayrjanovna</b> TARIX FANIGA INNOVATSION YONDASHUV .....	17
<b>7. Ibragimova Kamshat Oserbaevna</b> TARIX DARSLARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH .....	19
<b>8. Xatamova Aziza Maxammatqulovna</b> AMIR TEMUR DAVRIDA DAVLAT BOSHQARUVI MASALALARI.....	21
<b>9. Masharipova Aziza</b> ENG QADIMGI HAYKALTAROSHLIK SAN'ATI NAMUNALARI.....	23



## ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

### TARIX DARSLARIDA TARIXIY TASAVVUR VA TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH

**Axmedova Oftobxon Ikramovna**  
Sirdaryo viloyati Yangiyer shahar  
8-maktabning tarix fani o'qituvchisi  
Telefon:+99897903-75-05

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilarda tarixiy tasavvurni hosil qilishning asosiy usullari, tarix o'qitish jarayonidagi tarixiy tushunchalar, tarixiy tushunchalarni shakllantirishning usul va vositalari va tayanch tushunchalar haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** muzey, ekskursiya, Teshiktosh, Oqtosh, iqtisodiy tushuncha, ijtimoiy-siyosiy tushunchalar, tarixiy-madaniy tushunchalar va boshqalar.

Tarix o'qitish tarixiy dalillar haqida aniq obrazlarni va tasavvurlarni yaratishdan boshlanadi. Tarixiy tasavvur bilan tushunchalar bir-biri bilan uzviy bog'langan, o'quvchilarda hodisalar, tarixiy jarayonlar haqida yetarli darajada to'liq va aniq tasavvurlar mavjud bo'lgandagina tushunchalar hosil bo'ladi. tarix o'qitish jarayonida o'quvchilarning tasavvurlari chuqurlashib borishi natijasida, tushunchalarni shakllantirish uchun zamin yaratiladi. Tushunchalar o'z navbatida tasavvurlarni mazmunan boyitishga yordam beradi. Tasavvur va tushunchalarni hosil qilish metodik usullari ham ko'p hollarda bir-biriga o'xshab ketadi.

Tarix o'qitishda o'quvchilarning ko'z o'ngida o'tmishdagi ijtimoiy hayotning yaxshi manzaralarini shakllantirishda jonli va yorqin obrazlardan foydalanishning ahamiyati kattadir. Obrazlilik o'quvchilarni tarixdan oladigan bilimlarini ilmiy jihatdan puxta bo'lishini zarur sharoitlaridan biri tarixiy voqealarni modernizatsiya qilishning oldini olish, tarixga qiziqish uyg'otish hamda tarixiy dalillarni tahlil qilish va umumlantirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratishning muhim vositasidir. Bu borada O'zbekiston tarixi muzeyi yoki boshqa shahar va tuman o'lkashunoslik muzeylariga ekskursiya uyushtirish, o'quvchilarning haqiqatni aniq va to'liq to'g'ri fikrlashlarini taminlaydi. Ekskursiyovod Teshiktosh va Oqtosh yoki boshqa manzilgohlardan topilgan topilmalarni o'quvchilarga ko'rsatib ma'lumot bersa, o'quvchilarda ibtidoiy jamoa davri va eng qadimgi odamlar haqida tasavvur va tushuncha hosil bo'lishiga yordam beradi.

Tarix bo'yicha har bir sinf dasturi oxirida asosiy tushunchalar mazmuni belgilab beriladi. Tarixiy tushunchalarni hosil qilish deganda, o'quvchilarning tarixiy dalillarning eng muhim belgilarni ikkinchi darajali belgilardan ajrata bilish, guruhlariga bo'la olishni, tarixiy voqea va hodisalar o'rtasidagi bog'lanish va munosabatlarni chuqur anglab tushunib olish ko'zda tutiladi. Darsda o'rgatiladigan materialning mazmuniga qarab tushunchalar bir-biridan farq qiladi va ular quyidagi turlarga bo'linadi:

**Iqtisodiy tushunchalar:** Turli davrlardagi mehnat qurollari va xo'jalik hayoti, iqtisodiy jarayonlar.

**Ijtimoiy-siyosiy tushunchalar:** Davlatlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar va siyosiy tuzumi, jamiyatdagi sinfy kurashning ahvoli va uning rivojlanib borishi.

**Tarixiy-madaniy tushunchalar:** Uyg'onish davrining insonparvar madaniyati, moddiy va ma'naviy madaniyati va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda tarixiy tasavvur va tushunchalarni o'quvchilarda hosil qilib, boyitib borishda bu usullarning samarasi katta.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar .**

- 1 Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi T 1999-y 2-maxsus son
- 2 "Marifat" gazetasi, 1995-yil 11-oktabr
- 3 Eng yangi tarix "O'qituvchi" 1990-y 10-sinf uchun



## KARTOGRAFIK TEXNOLOGIYALAR ORQALI TARIXIY BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH METODLARI

Nazarova Nargiza Donaboyevna  
Sirdaryo viloyati Guliston tumani  
7-maktab tarxi fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarix darslarida karta va kartografiyaning o'rni, karta bilan dars o'tishning afzalliklari va o'quvchilarda karta va kartografiya haqida tushuncha, bilim va ko'nikma hosil qilish haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Karta, kartografiya, mustaqil fikrlash, innovatsiya.

Tarix darslarida yangi innovatsion texnologiyalarni qo'llash yaxshi samara beradi.

Shuningdek, tarix darslari samaradorligini oshirishda, karta va kartografiyaning ham o'rni katta. Kartalar tarixi taraqqiyoti asrlar davomida shakllangan oddiy chizmalardan toki aniq ishlangan kartalar yaratilishigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Olimlarning fikriga qaraganda: "bir kartaning mazmunini 100 sahifalik jiddiy ilmiy matnga tenglashtirish mumkin".

Karta-bu tarixiy manba bo'lib, voqealar davomiyligi haqida hikoya qiluvchi, vayron bo'lgan va yana tiklangan shaharlar, tabiiy obyektlarning vaqt o'tishi bilan o'zgarishini, unutilgan qadimgi sug'orish inshootlari hamda xalqlar taqdirini hududlar bilan bog'lab o'rganadi. Shu jihatdan har bir tarixiy kartani manba sifatida baholash mumkin.

Ibtidoiy jamoa davridanoq inson ilk kartalarni yarata boshlagan. Masalan: Geograf frits Redniger "Shveysariyadagi tarixdan avvalgi kartografik rasmlar" nomli asarida Shveysariyadagi g'orlardan topilgan ikkita suyak plastinkani o'rganish natijasida, plastinkalardagi tasvirlar o'sha joyga oid asosiy yo'llar tasvirlanganligini aniqlaganini yozadi.

Ilmiy adabiyotlarda qadimgi kartalar va kartografiyaning shakllangan davri haqida aniq javob yo'q. Ammo bizgacha yetib kelgan kartografik tasvirlar mil.avv.III-II ming yilliklarga oiddir. Qadimgi karta-tasvirlar gil taxtachalar, papirus va pergamentlarga chizilgan bo'lib, qadimgi tarixiy ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan. Kartalar yaratish an'anasi ilk bor qadimgi boy madaniyatli xalqlar-ossuriyaliklar, bobilliklar, misrlik va finikiyaliklarda eramizdan bir necha ming yil avval shakllangan.

Kartografiya atamasi esa, ancha kengroq tushuncha bo'lib, u "tabiat va jamiyatdagi voqea-hodisalarning o'zaro bog'liqligini, ularning vaqt o'tishi bilan o'zgarishi kartografik tasvir, obrazli belgi-modellar vositasi bilan tasvirlashni va tadqiq qilishni o'rganuvchi fandır. Kartografiya qadimgi fanlardan sanaladi. Bu fan haqidagi dastlabki ta'rifni (kartografiya atamasisiz) milodiy II asrda yashagan yunon olimi Klavdiy Ptolomey bergan.

Bugungi kunda tarixiy kartalar mazmuniga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

Tarixiy-geografik, tarixiy-etnografik, tarixiy-siyosiy, tarixiy-iqtisodiy, tarixiy-harbiy, milliy-ozodlik harakatlari va inqilobiy kurashlar tarixi, madaniyat tarixi, tarixiy-demografik, tarixiy-arxeologik, tarixiy tibbiy kartalar va boshqalar.

Tarixiy voqealarni tahlil qilish, avvalo jamiyatda kechgan jarayonlarni, qolaversa, joy, hudud va makonda bo'lib o'tganini bilish, o'quvchini esda qolarlik darajada bilimlarni o'zlashtirishga olib keladi. O'quvchilarning kartalar orqali qiziqishlarini shakllantirishda quyidagi usullarni qo'llash zarur.

- maroqli faktlarga boy vaziyatni vujudga keltirish;
- qiziqarli o'xshashlik va tajjublanishni his eta olish usullari;

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, tarix darslarini kartografik ma'lumotlar asosida tashkil etilsa, o'quvchilarda ko'rsatish va tushuntirish metodikasiga an'anaviy o'qitish uslubiga nisbatan o'quv darsining mazmunini ko'proq ochib berishga, yaxshiroq tushunib yetishga hamda samarali o'zlashtirishga imkoniyat yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzaliyev T. Kartografiya. T "Universitet" 1982-y
2. O'uvchilarning bilish faoliyatlarini kengaytirishga yo'naltirilgan o'quv variantlarini tanlash va tizimlashtirish. qo'llanma. T "fan va texnologiya" 2013-y
3. Салишев. Карта и картография : как стары эти панятая и термини. Журнал ВГО. 1976



## DUKCHI ESHON –YOXUD KAROMATLAR SOHIBI

**Sobitova Latofat Ko'chimovna**

Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani

15-umumta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi

Telefon:+99899 372-02-65

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada 1898-yilda chor mustamlakichiligiga qarshi ko'tarilgan Dukchi yoki yikchi eshonning hayot yo'li haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Yikchi eshon, Mingtepa, karomatli mehmonxona, beolov osh pishirish, har ishga alohida odam.

Dukchi eshon yoki yikchi eshon nomi bilan shuhrat qozongan kishining nomi Muhammadali bo'lib, Marg'ilon shahriga tobe Shaxidon qishlog'ida o'rtaol bir dehqon oilasida tug'ilib, otasi Muhammad Sobir eshonlar xizmatida ko'p yurgan va xalifalik laqabini olgan bir chala mulla bo'lib, o'g'li Muhammadalini yosh vaqtida Buxoroda asli qo'qonlik domla Usmonxo'ja oxund degan kishiga topshirib, savod o'qitib, qoriga berib, biroz qiroat ilmini o'qitib, o'g'li 14 yoshda G'ijduvon qishlog'iga imomlik qilib. Ikki yil bu joyda turib o'g'lini shu eshonga topshirgan. Ikki yildan so'ng otasi o'gli yoniga qaytib, shu yerda vafot etadi. Bu vaqtda Muhammadali 18 yoshda bo'lgan holda, ikki yil Karruhda "Mulla Usmon oxund sudur"ning xizmatida qolib, keyin shu eshonning ijizat va irshodi bilan 20 yoshida o'zining vatani bo'lgan Farg'ona viloyatining Andijon shahriga qarashli Mingtepa va boshqa qishloqlarga dong'i ketgan Sultonxon to'ra xizmatida turib qoldi. Shahrixonsoyning 40-50 sarjinlik baland quruq yerlaridagi daraxtlarga suv tashib quyib, ko'kartirdi va bu yo'ldan o'tguchi yo'lovchilarga "ob xudoyi" deb suv berib, xalqning xurmatiga sazovor bo'ldi.

Xususan, Ko'gart, Ketmontepa, umumiy elatiya qirg'izlar ichida shuhrati ziyoda bo'lib, katta boylar va elning boshliqlari kelib, eshonni ziyorat qiladigan darajaga yetdi.

Shu tariqa xalfalar Muhammadali eshonga o'zi tug'ilib o'sgan Mingtepa qishlog'idan hovli-joy qilib berishdi. Eshon yangi hovliga ko'chib kelgach, odamlar unga nazr-niyoz qilib keltirgan narsalarni xalqqa bo'lib bera boshladi bu esa, uning obro'sini yanada oshishiga va xalqning unga ixlos qilishiga olib keldi.

Muhammad xalifa ( yikchi eshon)ning surati: o'rta bo'yli, echki soqolli, ozg'in, bug'doy rang, qoshi tutashgan, tojiklarga o'xshab ketuvchi, halim, kam gap, kulib turuvchi, ovozi mayin bir kishi edi. Hamma vaqt bo'z ko'ylak va ishton bilan malla to'n kiyar edi. Hech vaqt yangi va ipak to'n kiymas edi. Eshon shu darajada sermulozamat bo'lgan ekanki, aksariyat uni ziyorat qilib kelganlar uchun o'zi dasturxon yozgan ekanlar.

Barcha eshonlar o'z kasb korlari orqali ro'zg'or tebratganlar. Muhammadali eshon ham otasidan ip yigirish uchun yog'ochdan yik yasashni o'rganib olgan va aynan, shu hunari orqali ro'zg'or tebratgan.

Hazrat eshonning mehmonxonalari ichida bir mehmonxonani "Karomatli mehmonxona" deb atashgan. Buning karomati shu ediki, aksar shak keltirgan muridlar bu mehmonxonaga chiqqanda bir parcha o't devordan uzatib ularning yuziga urilar va soqol-mo'ylovini kuydirar edi. Bu esa shunday karomat ediki, devorning ichidan (oshxonadan) quvur qo'yib o'sha mehmonxona yo'lagidan o'tkazilgan edi. Bazi qora xalqdan ibrat olmagan ishonmagan kishilarni muridlar bu xonaga olib kirar edilar. Quvurning orqasida bo'lgan kishi, quvur qarshisiga kelgan haligi odamga qarab quvur og'zini birdan to'sib qo'ysa, zinapoyadagi (devordagi) quvur teshigidan o't alangasi gup etib tegar va quvurni ochib yuborsa to'xtar edi.

Eshonning yana bir karomatlaridan biri beolov osh pishirish edi. U qo'shnisining oshxonasi orqali quvur o'tkazib, o'zi qurdirgan oshxonaga olib kelgan. Oshxonada uchta qozon bo'lib, quvurdan chiqqan olov qozonni qizidirar, olov odamlarga ko'rinmas edi. Palovning masalliq-lari oldindan qaynatib pishirib qo'yilar va kelgan odamlar ko'z o'ngida palov tayyorlanar va xalq bu "mo'jiza"ga ishonishgan.

Yana bir karomat shu ediki, eshon bir necha odamlarni chaqirib, birini ot, ikkinchisini qo'y, uchinchisini echki, to'rtinchisini tuya, beshinchisini ho'kiz, oltinchisini bug'doy, yettinchisini arpa, sakkizinchisini cho'ri, to'qqizinchisini sigir, o'ninchisini pul deb nom qo'ygan. Bular hovlida har doim hozir bo'lib turishgan. Kelgan muridni ziyofat qilgandan so'ng eshonni ziyorat



qilgani olib kirishganda, eshon ziyoratchini olib kirgan xizmatkorga qarab uning qanday hadya keltirganini bilib olgan. Masalan, bir ziyoratchi eshonga ot olib kelsa, uni taomlantirishgandan so'ng ,aynan ot hadya uchun mas'ul bo'lgan xizmatkor kelgan kishini eshon huzuriga olib kirgan. Eshon ziyoratchi bilan hol-ahvol so'rashib bo'lgach, keltirgan otingiz uchun rahmat deb aytgan hamon kelgan kishilarning unga bo'lgan ixloslari yanada ortgan.

Bunday karomat va mo'jizaviy holatlar oxir-oqibat xalq orasida eshonning obro'yi oshishiga va xalqning unga ergashishiga olib kelgan. Ammo, shuni aytish joizki, mana shunday uddaburonlik bilan xalqni etirofi va e'tiboriga sazovor bo'lish hammamizning ham qo'limizdan kelmasa kerak deb o'ylayman.

Har ne bo'lganda ham Muhammadali eshon yurtimizning mustaqilligi uchun kurashgan qahramonlardan desak mubolag'a bo'lmaydi. Zero, biz bugun yashayotgan ozod yurtimizning mustaqilligi yo'lida ularning ham xizmatlari bor deb o'ylayman. Ushbu maqola orqali kimgadir oz bo'lsa-da, dukchi eshon haqida ma'lumot bera olgan bo'lsam bundan juda xursand bo'lar edim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Fozilbek Otabek o'g'li “Dukchi eshon voqeasi” Toshken Cho'lpon nashriyoti 1992-yil.
2. Mannop Egamberdiyev “Sariq ajdar hamlasi” Toshkent G'afur G'ulom nashriyoti 1998-yil



## АБУЛҒОЗИЙ БАҲОДИРХОННИНГ ХИВА ХОНЛИГИ РИВОЖИГА КЎШГАН ХИССАСИ

**Ибодуллаева Нафиса Садуллаевна**  
Хоразм вилояти Шовот тумани  
17-сон умумий ўрта таълим  
мактаб тарих ўқитувчиси  
+998995018512

**Аннотация:** Ушбу мақола Хива хонлигининг энг ёрқин, маърифатпарвар ислохотчи Абулғозий Баҳодирхоннинг Хоразм ҳудудида амалга оширган ислохотлари ҳақида боради.  
**Калит сўзлар:** Қийот, найманлар, Дарғонота, Миздеҳқон, иноқлар, бийлар.

Абулғозий Баҳодирхон 1603 йил 24 августда днёга келади. Унинг отаси Араб Мухаммад хонлиги даврида Хоразм дехқончилик ва суғориш ишларини яхшилаш борасида муҳим тадбирлар амалга оширилди. Урганч ва Миздеҳқон оралигида кенг ер майдонларига сув чиқариш мақсадида Туқ қалъаси яқинида битта канал тортилган. Янги ерларни ўзлаштириб мўл ҳосил олинган.

Бироқ Араб Мухаммаднинг гхукмронлигининг сўнгги йилларида Хива хонлигида сиёсий вазият анча мураккаблашиб қолади. Хоннинг фарзандлари ўртасида тахт учун кураш авж олиб кетади. Араб Мухаммад ўз фарзандлари Хабаш ва элбарсинг қўлида вафот этади.

Араб Мухаммад вафот этгач тахтни Асфандиёрхон эгаллайди сўнг тахт Абулғозий эгаллайди. У бошқа хонлардан фарқли ўлароқ ўта тадбиркор, маърифатли хон эди. Тожик форс ва мўғул тилларини билган. Шажараи турк ва Шажараи тарокама асарлари билан жаҳонга машҳур булган. Абулғозий давлат тепасига келгач даставвал асосий эътиборни давлат тузимини мустаҳкамлашга қаратади. Давлат тепасига келган туркман амалдорларини бошқарувдан четлаштиради. Шунингдек 32 марказий бошқарув лавозимини ташкил этади. Улар тубандагича: шайхулислом, мутавали, парвоначи, чиғатой иноқ, мироб, бийлар, вазир(мехтар), кушбеги ва ҳакозо.

Абулғозийнинг ички сиёсат соҳасида ўтказилган энг муҳим тадбирларидан яна бири Дашти Қипчоқдан келган кўчманчи қабилаларни бутун воҳа бўйлаб тақсимлаши ва ўтrockлаштирилиши бўлди. Ўзларини “ўзбек” деб атаган кўчманчи қабилаларни ўзаро яқинлигига қараб туртга гуруҳга бўлди. Дарғонотадан то Орол денгизигача булган ерларга жойлаштирди. Биринчи гуруҳ асосан Уйғур найманлар ташкил этган бўлиб уларга яна дўрман, минг, шайх, бурлоқлар каби кичик гуруҳлар кўшилган. Иккинчи гуруҳга асосан, кўнғирот -қиёт бирлаштирилиб, унга алиэли, жалаирлар ҳам қўшилди. Учинчи гуруҳга Нукус-манғит қабилалари бирлаштирилиб, кенагас, хўжаэли ҳам қўшилди. Туртинчи гуруҳга қанғ қипчоқ қабилалари киритилиб, уларга яна 14та уруғ бирлаштирилган.

Ўзларини Дашти Қипчоқ “Ўзбеклари” деб аталган қабилалар Хоразм бўйлаб қуйидагича жойлаштирилди. Питнақдан Янгиарикгача (Хазораспқаъласи атрофи ҳам) бўлган ҳудудларга найман қабилалари, шайх ва бурлоқ уруғлари жойлаштирилди. Гурландан то Лавзан каналигача бўлган ҳудудларга манғит қабилалари жойлаштирилди. Улардан то Амударё қуйи ҳавзасининг ўрта қисмигача нукус ва манғит қабилалари, ғарбий томонида қуйғун деб номланган ҳудудга кўнғирот ва қийотлар ўрнашган. Шундай қилиб Абулғозийхон даврида келган Дашти Қипчоқ қабилалари Хоразимнинг деярли барча ҳудудларига ўрнашадилар.

Абулғозийхоннинг кейинги ислохотларидан бири бу катта каналларнинг барпо этилишидир. 1646 йилда Абулғозийхон фапмони билан Амударёдан ариқ қазилиб, унга Урганч- Арна деб ном кўйдилар. Ана шу ариқ яқинида янги бир шаҳар Урганч шаҳри барпо қилинди. Урганч шаҳрида катта қаъла барпо қилинди. Шу вақтдан бошлаб янги шаҳар Янги Урганч деб, эски Урганч эса Кўхна (Кўна) Урганч деб юритила бошланди. Сув танқислигидан азоб чекаётган Кўхна Урганч аҳолиси Янги Урганч шаҳрига кўчирилди. Ўша вақитда Абулғозийхоннинг топшириғи билан Гурлан қаъласидан 12км шимолӣ-ғарбда Кичик Вазир қаъласи бунёд этилиб, Катта Вазир аҳолиси шу жойга кўчирилди. Ундан ташқари Мадр канали қайтадан қазилиб, Ғозийобод Арна деб аталди.

Абулғозийхон даврида амалга оширилган ислохотлар улкан қурилишлар, сув иншоотлари хонликда экин майдонларни кенгайтириш, суғориш ишларини яхшилаш, аҳоли



фаравонлигини оширишга имкон яратди.

Абулғозийхон марказий ҳокимитни бирмунча мустаҳкамлаб, асосий эътиборини давлат чегараларини кенгайтириш ва мустаҳкамлашга қаратди. Шу мақсадда Абулғозийхон 1645-1650- йилларда Хуросон, Жанубий Туркманистонга, Тажан, Мурғоб, Артек дарёлари хавзасидаги ҳамда Гурган, Абулхон ва Манғишлокатрофларидаги туркманлар устидан ғалаба қозониб ўзига бўйсундирди. Хонликнинг шимолий-ғарбий чегараларида яшовчи аҳоли қолмиқ қабилаларидан азоб чекаётган эди. Абулғозийхон қолмиқ қабилаларига қажатгич зарба бериб аҳолини бу азоблардан қутқарди.

Абулғозийхоннинг ҳайрли ишларини унинг ўғли давом эттиради. Хали ҳаётлигидаёқ тахтни унга мерос қилиб берди. Маърифатли ва адолатли хон Абулғозийхон умрининг сунгги йилларида кейинги авлодларга мерос қолдириш мақсадида Хоразм тарихи ёзди. Ушбу асар “Шажараи турк ва Шажараи тарокама” деб номланди.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. М. Матниязов Хоразм тарихи. Урганч.,2004й.
2. Ғуломов Я. Хоразмнинг суғориш тарихи Т.,1959г.
3. Матюсуф Баёний. Шажараи хоразмшохий “Мерос”Т.,1991й



## БЕТАКРОР ВА НОЁБ ИЛМИЙ- МАЪНАВИЙ МЕРОСИМИЗ, КУЧ-ҚУДРАТ ВА ИЛҲОМ МАНБАИ

**Искандарова Асолат Сафаровна**

Навоий вилояти Зарафшон шаҳар 8-умумий ўрта  
таълим мактабининг ўқув ишлар  
бўйича директор ўринбосари  
Телефон : +998(97)3212696

**Анотация:** Ўзбекистон республикасида барча йўналишларда янгилашиш ва ўзгаришлар жараёни кечмоқда. Ушбу жараёнда таълим соҳасига ҳам алоҳида эътибор қаратилган бўлиб ёш авлодни маънавий маданиятли қилиб тарбиялаш вазифаси қўйилган. Ушбу мақолада ноёб илмий-маънавий меросимиз куч ва қудрат манбаи эканлиги ҳақида фикр юритилади.

**Калит сўзлар:** авлодлар тафаккури, миллий урф-одат, фидоийлик руҳи, маънавий қадрият, маданий ва маънавий қадрият, тарихий имконият.

Ўзбекистон жаҳон ҳамжамиятида ўз ўрнига эга давлат сифатида танилди. Бу аввало бизнинг аجدодларимиздан ўтиб келаётган бетакрор ва ноёб илмий- маънавий меросимиз туфайли десак муболаға бўлмайди.

Юртимиз кишилиқ жамиятининг илк тараққиёт палласиданоқ кўплаб авлодлар тафаккури ва даҳоси билан яратилган энг қадимги тошёзувлар ва битиклар халқ оғзаки ижоди намуналаридан тортиб, бугунги кунга қадар дунё илм фанига пойдевор бўлиб келаётган илмий ва назарий қарашлар мажмуасини ярата олганлигини дунё халқлари минг йиллар муқаддам эътироф этганлар.

Бундай бой илмий-маънавий маданий мерос негизида аجدодлар томонидан яратилган амалий тажриба, маънавий, ахлоқий, илмий, диний ва маданий қарашлар, халқ ижодида ифодаланган моддий ҳамда ва маданий бойликлар ётади. Бу мерос умумжаҳон меросининг намунаси сифатида ЮНЕСКО рўйхатига киритилгани ҳам бу фикримизни тасдиқлайди. Истиклол йилларида бу меросни тиклаш, уни авайлаб асраш, янгича шароитда бойитиш ва авлодларга етказиб беришдек улкан бунёдкорлик ишлари амалга оширилди. Қадимий шаҳарларимиздаги қадамжолар тикланиб ободонлаштирилди, истебод йилларида таъқиқиланган миллий урф – одатларимиз, қадриятларимиз тикланди. Қарийиб уч минг йиллик тарихга эга маънавий бойликларимиз, “Авесто” дан тортиб “Алпомиш” дostonи, энг азиз ва мўътабар байрам – “Наврўз” айёми, маънавиятимизнинг ажралмас қисми муқаддас динимиз, буюк аждодларимиз Имом Бухорий, Имом Термизий, Имом Мотрудий, Мухаммад Мусо Хоразмий, Ал Фарғоний, Ибн Сино, Абу Райҳон Беруний, Амир Темур, Мирзо Улуғбек, Алишер Навоий, жадид боболаримизнинг улкан маънавий – маърифий ва илмий – фалсафий мероси, давлатчилик тажрибаси бугунги кунда ҳам мамлакатимизнинг ҳар томонлама тараққиёти ва ёруғ истиқболига хизмат қилиб келмоқда.

Бу буюк мероснинг тарихий илдиzlари бор. Бу халқимизнинг маънавий тараққиёти, миллий тафаккур пойдевори, халқимиз маънавиятининг шаклланиши ва такомиллашуви жараёнини ифодаловчи жараёндр. Спитамен, Алпомиш, Гўрўғли, Тўмарис, Широқ тўғрисида ривоят ва дostonларда ватанпарварлик, мардлик, дўстлик, садоқат вафо ва юрт ободлиги учун фидоийлик руҳи бадиий тасвирланган. Маънавий меросимизнинг мавзуси диний дунёқарашлар ва уларнинг энг қадимги шаклларида ҳам ўз ифодасини топган, ҳар бир дин ўзига хос маънавият тизимини яратган. Ана шу динларнинг асосий китобларида муайян маънавий тизимлар ўз ифодасини топган. Маънавий бойликларнинг тарихий илдиzlари такомиллашиб боргани сари, уларда янги қирралар намоён бўла боради. Аждодларимизнинг қадимги китоби “Авесто” да халқимизнинг ўша даврдаги маънавияти, маданияти, урф-одати ёритиб берилган. Мазкур китоб зардўштийликнинг муқаддас китоби бўлганлиги сабабли унда бу диннинг маънавий тарихий илдизи тизими ҳам ўз ифодасини топган. Асарда эзгулик, яхшилиқ, маънавий баркамоллик, ҳурфикрлик, инсонпарварлик каби хислатлар Ахурамазда қиёфаси орқали кўрсатилган. “Авесто” нинг туб маъно моҳиятини белгилаб берадиган “Эзгу фикр, эзгу сўз, эзгу амал” деган тамойилни оладиган бўлсак, унда ҳозирги замон учун ҳам беҳад ибратли бўлган сабоқлар борлигини кўриш мумкин. Ана шундай фикрлар, яъни, эзгу ният, сўз ва иш бирлигини жамият ҳаётининг



устувор ғояси сифатида талқин этиш бизнинг бугунги жамият ҳаётининг устувор ғояси сифатида талқин этиш бизнинг маънавий идеалларимиз билан нақадар узвий боғлиқ, нечоғлиқ мустаҳкам ҳаётий асосга эга эканлиги айниқса эътиборлидир. “Авесто” юртимиз заминда яшаган халқларнинг исломгача бўлган даврдаги табиий – илмий қарашлари, айниқса ахлоқи ва маънавиятининг муҳим манбалари бор. Маълумки, бу дунёда ҳар қайси миллатнинг ўз афсонавий қаҳрамонлари, ўзи севиб ардоқлаган атоқли инсонлари бўлади. Халқимиз азалдан ўз вужуди, ўз томирида мавжуд маънавий кудратга муносиб бўлмоқликка интилиб, ўз ўғлонларини мардлик ва ҳалоллик, жасурлик руҳида, эл – юрт учун жонини ҳам аямайдиган асл инсонлар этиб тарбиялаб келган. Шу маънода халқ оғзаки ижодининг ноёб дурдонаси бўлмиш “Алпомиш” достони миллатимизнинг ўзлигини намоён этадиган, ажодлардан авлодларга ўтиб келаётган қаҳрамонлик қўшиғидир. Агарки, халқимизнинг қадимий ва шонли тарихи туганмас бир дoston бўлса, “Алпомиш” ана шу дostonнинг шоҳ байти демак тўғри бўлади. Бу мумтоз асарда тарих тўфонларидан, ҳаёт – мамот синовларидан омон чиқиб, ўзлигини доимо сақлаган эл-юртимизнинг бағрикенглик, матонат, олижаноблик, вафо ва садоқат каби фазилатлари ўз ифодасини топган. Шу боис “Алпомиш” достони бизга ватанпарварлик фазилатларидан сабоқ беради. Одил ва ҳақгўй бўлишга, ўз юртимизни, оиламиз кўрғонини кўриқлашга, ёру – дўстимизни, ор – номусимизни, ота – боболаримизнинг муқаддас мазорларини ҳар қандай тажовуздан ҳимоя қилишга ўргатади. Бир сўз билан айтганда, халқимизнинг энгилмас баҳодирлари – Алпомиш тимсолида биз Ватанимизни ёмон кўзлардан, бало – қазолардан асрашга қодир, керак бўлса, бу йўлда жонини ҳам фидо қилишга тайёр бўлган азамат ўғлонларимиз - бугунги алпомишларнинг қиёфасини кўришимиз мумкин.

Кўхна тарихимизнинг шу маънода кўз ўнгимиздан ўтказиб, таҳлил қиладиган бўлсак, муҳим ва ибратли фикрни такроран айтишга тўғри келади. Яъни, ота – боболаримиз руҳий оламнинг томир – илдизларини айнан юқорида зикр этилган маънавий заминда ҳам, тарихда ҳам, бугун ҳам, барчанинг ҳавасини тортиб келаётган олижаноб фазилатлар асосида шаклланган.

Маънавий бой миллий қадриятлар тўғрисидаги қарашлар ривожда VIII – XII асрлар катта аҳамиятга эга. Бу даврда ижтимоий-сиёсий ҳаётда муайян тинчлик ҳукм сураётган, ислом дини кўпгина шарқ халқларининг умумий динига айланган эди.

Қуръонда таърифлаб берилган маънавият тизими халқларимиз тарихи ва маданиятига ниҳоятда катта таъсир кўрсатган. Айниқса, кўп асрлар мобайнида халқимиз қалбидан чуқур жой олиб, ҳаёт маъносини англаш, миллий маданиятимиз ва турмуш тарзимизни қадриятларимизни, урф – одат ва анъаналаримизни безавол сақлашга муқаддас динимиз кудратли омил бўлиб келаётганлигини алоҳида таъкидлаш жоиз. Нега деганда, инсонийлик, меҳр – оқибат, ҳаллоллик, охиратни ўйлаб яшаш, яхшилик, меҳр – шафқат сингари халқимизга мансуб бўлган фазилатлар айнан ана шу заминда илдиз отади ва ривожланади.

Юртимизда яшаб ўтган ҳар бир мутафаккир, аллома ижодида ислом дини таъсири яққол сезилиб туради. Шу билан бирга исломнинг юртимизга тарқалиши давридаги истило оқибатида миллий маънавиятимизнинг кўп қадриятлари мусулмон маънавиятига ўрин бўшатгани тўғрисида Абу Райҳон Берунийнинг “Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар” асарида ёзиб қолдирган.

Халқимиз маънавияти ислом тарқалган халқлар маданиятининг ривожига катта таъсир кўрсатган. Хоразмий, Форобий, Беруний, Ибн Сино, Улуғбек каби мутафаккирлар, ал Бухорий, ат-Термизий, Марғиноний, Замахшарий, Насафий, Нажмиддин Кубро, Нақшбандий каби илоҳиёт илмининг забардаст алломалари, Лутфий, Навоий, Бобур, Бедил каби зотларнинг бой меросининг жаҳон цивилизациясига таъсири катта бўлган. Замонавий ислом илоҳиятчиларининг Имом Бухорий асарларини Қуръондан кейинги муқаддас китоблар сифатида тан олаётгани, Имом Термизий ва Нақшбанд қабрлари муқаддас қадамжоларга айлангани бежизга эмас. Бизнинг замин фарзанди – бобомиз Абу Исо Термизийнинг маънавий мероси, жумладан, “Сунани Термизий” асари ҳам мусулмон оламида юксак кадрланади. Алломанинг асрлар давомида олиму – фузалоларга дастур бўлиб келган инсоф ва адолат, инсонпарварликни тарғиб этувчи ғоялари ҳозирги мураккаб давримизнинг кўплаб ахлоқий-маънавий масалаларини ҳал этишда ҳам муҳим аҳамият касб этиши билан эътиборга моликдир.

Милоднинг VIII – IX асрларига келиб ички урушлар нисбатан барҳам топган, ижтимоий



ҳаётда нисбатан барқарорлик ҳукм сураётган эди. Бу даврда маънавий ва маданий ривожланиш, илм – фан ҳамда адабиётнинг тараққиёти учун имконият пайдо бўлди.

Тарихий манбаларнинг гувоҳлик беришича, Имом Бухорий вафот этган йили, яъни 870 йилда тарихимизда яна бир мумтоз сиймо – Имом Мотрудий таваллуд топган экан. Имом Мотрудий бобомизнинг ўрта асрлардаги ғоят хатарли ва таҳликали вазиятда ўз ҳаётини хавф остига қўйиб авлодларга ибрат бўладиган маънавий жасорат намунасини кўрсатиб, ислом оламида

“Муслмонларнинг эътиқодини тузатувчиси” деган юксак шарафга сазовор бўлгани бу матонатдан далolat беради.

Ўша даврнинг буюк мутафаккирларидан бири Мухаммад Мусо ал – Хоразмий (783-850) халифа Маъмун ташкил қилган “ Байтул ҳикмада” катта мавқейга эга бўлган. У илгари сурган ғояларда маънавиятнинг умуминсоний жиҳатлари ифодаланган. Хоразмий олимнинг маънавиятини таърифлар экан, қуйидагича ёзади: “Ўтмиш даврларда ўтган олимлар фаннинг турли тармоқларида асарлар ёзиш билан бирга ўзларидан кейинги келадиганларни назарда тутадилар. Улардан бири ўзидан аввалгилардан қолган ишларни амалга оширишда бошқалардан ўзиб кетади, уни ўзидан кейин келувчиларга мерос қолдиради, бошқаси ўзидан аввалгиларнинг асарларини шарҳлайди, бу билан қийинчиликларни осонлаштиради... ўзидан аввалгилар ҳақида яхши фикрда бўлади, такаббурлик қилмайди ва ўзи қилган ишидан мағрурланмайди“.

Бу сўзлар бутун шарқ олимлари учун умумий талаб, камолот мезони, ҳозирги интеллектуал мулк эгалари маънавий қиёфасининг асосий хусусияти сифатида намоён бўлади.

Шарқ маънавияти ва маданияти тарихида муҳим ўрин тутган яна бир аллома Абу Наср Фаробийнинг маънавиятга доир қарашлари “Мадинатул – фозила“ таълимотида ўз ифодасини топган. Аллома фозил жамият тўғрисидаги таълимотида юксак ғоялар, адолатли ижтимоий муносабатлар қарор топган даврда вужудга келадиган маънавий – ахлоқий хусусиятларнинг умумий тизимини изоҳлаб берган. Форобий ( 879 – 959) ҳам маънавиятга катта эътибор берган. Форобийнинг маънавий маънавиятга оид қарашлари “Мадинатул фозила“ таълимотида ўз ифодасини топган. Аллома фозил жамият тўғрисидаги таълимотида юксак ғоялар, адолатли ижтимоий муносабатлар қарор топган даврда вужудга келадиган маънавий – ахлоқий хусусиятларнинг умумий тизимини изоҳлаб берган. Форобий бундай жамиятда диний маънавият ҳам муайян аҳамиятга эга бўлишини, аммо унда калом (теология) ва фикҳ (хуқуқшунослик) вакиллари кишиларнинг маънавий – ахлоқий камолоти учун жавоб берадиган соҳаларни бошқаришлари, ижтимоий муносабатларнинг асосий соҳалари эса файласуф ҳукмдорлар томонидан бошқариб борилишининг таъкидлайди. Мутафаккир диний қарашлар ғоявий соҳада энг асосий аҳамият касб этган ўша даврда, нафақат Аллоҳ ғоясини, балки, инсон жамият ва илм- фан маънавиятини фалсафий билимларнинг асосий мавзуларидан бири сифатида талқин этган дастлабки Шарқ файласуфларидандир.

Маънавият мавзусини Абу Райҳон Беруний ( 973- 1048) ҳам четлаб ўтмаган. Унинг фикрича, маънавиятнинг вужудга келиши ижтимоий муносабатлар, кишиларнинг яшаш тарзи, моддий эҳтиёжлари, қизиқишлари, манфаатлари, талаблари ва мақсадлари билан узвий боғланган. Масалан, кишилар ўртасидаги ҳамкорлик одамларнинг бирлашиш эҳтиёжлари кўплиги, ҳимоя қилиш қуроллари камлиги ва душманлардан ўзини ҳимоя қилиш зарурияти туфайли вужудга келган.

Беруний ҳунар, савдо – сотик, мамлакатлараро маданий – илмий алоқаларни кучайтириш, ижтимоий ҳаётда ҳам илм-фаннинг ривожлантириш, унинг ролини оширишнинг тарафдори эди. Шу билан бирга, у босқинчиларнинг юртимиз маданий ва маънавий бойлигини йўқотиш соҳасидаги сиёсатини қоралайди, маданий ва маънавий тараққиётда ворисликнинг аҳамиятини таъкидлайди. Бутун дунёга маълум ва машҳур бўлган буюк аллома ва азиз – авлиёларимиз орасида Абдуҳолиқ Гиждувоний ва Баҳовуддин Накшбанднинг муборак сиймоси ажралиб туради. Ота – боболаримиз улуғ авлиё Баҳовуддин Накшбандга чин дилдан ихлос қўйиб, уни “ Баҳовуддин Балогардон” деб таърифлаб келишида теран маъно бор. Унинг “ Дилинг Оллоҳда, қўлинг меҳнатда бўлсин” деган ҳаётбахш ҳикмати динимизнинг олижаноб маъно – моҳиятини ёрқин ифодалаб, худдики, шу бугун айтилгандек жаранглайди.

Ибн Синонинг маънавий мерос ҳақидаги ғоялари ҳам муҳим аҳамиятга эга. Алломанинг “Донишнома”, “Соломон ва Ибсол” каби асарларида ўз ифодасини топган. Унинг назарида,



Ўз ибтидосини Аллоҳдан олган борлиқ ва табиат инсонни ўраб турувчи абадий макондир. Шу жиҳатдан унинг қадри беқиёс, инсон эса ҳамма бойликларни табиатдан олади, ундан ўзига даъво топади. Ибн Сино инсон, уни ўз – ўзини идора қилиши ҳақидаги фанларнинг аҳамиятини юксак баҳолайди. Ибн Синонинг фикрича, одамнинг қадри бошқалар билан ҳамкорлиги, яхши ахлоқий фазилатларга эга бўлишга интилиш, донолиги бошқаларга яхшилик қила олиши билан белгиланади. Агарки мана шу муқаддас заминимизда таваллуд топиб, вояга етган, ўз ҳаёти ва фаолияти билан нафақат тарихда, айтилган вақтда башариётнинг бутун тараққиёт саҳифаларида ҳам ўчмас из қолдирган буюк мутафаккир ва алло-маларимиз, азиз – авлиёларимизни таърифлашда давом этадиган бўлсак, ўйлайманки, бу борада узоқ гапириш мумкин. Бизнинг ўз олдимизга қўйган мақсадимиз эса, бундай улуғ зотларнинг ҳаёт йўли ва қолдирган меросини тўлиқ тасвирлаш эмас, балки уларнинг энг буюк намоёндалари тимсолида маърифат, илму фан, маданият, дин каби соҳаларнинг барчасини ўзида уйғунлаштирган халқимизнинг маънавий олами нақадар бой ва ранг – баранг эканлигини исботлаб беришдан иборатдир.<sup>1</sup>

Маънавий мероснинг ва унинг тарихий таҳлили Хоразмий, Форобий, Ибн Сино ва Берунийларнинг мероси билангина чегараланиб қолмайди. Унинг ал-Бухорий, ат-Термизий, Нажмитдин Кубро, Аҳмад Яссавий, Нақшбандий каби забардаст намоёндалари бўлган тасаввуф таълимотига ҳам тўғридан – тўғри алоқаси бор. Шу билан бирга, жаҳон фан ва маънавиятига улкан ҳисса қўшган Ҳофиз Шерозий, Жомий, Навоий, Улуғбек, Бедил, Машраб каби зотларнинг бу борадаги қарашлари ҳам ниҳоятда муҳим аҳамиятга эга.

Бу анъана юртимиз маънавий тараққиёти тарихида асло тўхтаб қолмади ва бу борада А.Донишнинг “ Ўғилларга насиҳати”, А.Авлонийнинг “ Туркий гулистон ёхуд ахлоқ “ асарларини эслаш кифоя.

Бугун бизнинг олдимизда тарихий имконият пайдо бўлдики, биз босиб ўтган йўлимизнинг танқидий баҳолаб, миллий давлатчилигимиз негизларини аниқлаб, буюк маданиятимиз томирларига, қадимий меросимиз илдизларига қайтиб, ўтмишимиздаги бой анъаналарни янги жамият қуришга, таълим соҳасига тадбиқ этмоғимиз керак. Табиийки, ушбу ғояни бугунги тараққиётимизнинг бош мазмунини белгилайди. Унинг тарихийлиги ва замонавийлиги тамойиллари етакчи ўрин эгаллайди.

Бутун дунё аҳлини қамраб олган глобал иқтисодий жараёнлар ҳам тарихий маънавий муносабатларнинг унга мувофиқ ҳолда янгиланиб боришига асос бўлмоқда. Маънавиятга таъсир этувчи ушбу омилларнинг кучайиб бориши, инсон тарққиёти билан бирга унинг тарихий илдизларига таҳдид ва тажовузларни ҳам вужудга келтирмоқдаки, бу таҳдид ва тажовузлар охир – оқибатда алоҳида миллий бирликларга хос маънавий кўринишга барҳам бериш йўлидан йўлидан ривожланмоқда.

Бетақдор илмий ва маънавий меросимиз бугунги кунда тараққиётимизнинг йўлчи юлдузи бўлиб фақат эзгуликка ва яратувчиликка хизмат қилаверади. Ундан нафақат бугунги ворислар балки, бутун дунё ҳамжамияти баҳра олади.

Бизларнинг вазифамиз эса бу меросдан фақат фахр ва ғурур туйишгина эмас, балки, янгиланётган юртимизда, янгича тарихий шароитда уни тараққиётга ўзимизнинг муносиб ҳиссамизни қўшишимиздир. Бу фаолиятимиз учун мамлакатимизда биз педагогларга ҳам ҳамма шароитлар яратиб берилётганлиги кўнглимизни хушнуд этади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Маънавият: асосий тушунчалар ва изоҳли луғат, Ғ.Ғулом нашриёти, Тошкент- 2010 ,
2. Маҳаллада ғоявий тарғибот. А.Навоий нашриёти, Тошкент, 2009 йил.
3. Соҳиб Камол. Тафаккур чашмаси, “ Сурхон – Нашр” 2019 ,
4. Жаҳолатга қарши маърифат. Ўзбекистон халқаро ислом академияси, 2020 йил
5. Ш.Тўраев Оила маънавияти, “ Сано – стандарт” нашриёти, Тошкент, 2012 й.
6. О.Сафаров .Оила маънавияти. Тошкент, Маънавият, 2009 йил.
7. Ш.Содиқова “ Ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда кексаларнинг роли “ Тошкент, Маънавият, 2016 й,
8. Ш.Содиқова . Оила тарбияси. Тошкент, Академнашр, 2019 йил



## TARIX FANIGA INNOVATSION YONDASHUV

**Aralbaeva Kamshat Kayrjanovna**  
Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Nukus shahar 25-sonli maktabning  
Tarix fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada har bir pedagog ijodiy izlansa, ilg'or tajriba va metodlarni qo'llagan holda faoliyatni olib borsagina samarali natijalarga erishishi mumkinligi va shu jumladan tarix fanidan dars o'tish jarayonida o'quvchilarni fanga qiziqtirish maqsadida o'qitishning noan'anaviy usullarini qo'llash zamon talabi ekanligi haqida so'z borgan.

**Kalit so'zlar:** Innovatsiya, dars, o'qituvchi, o'quvchi, bilim, ta'lim, tarbiya, fan

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Bunga o'quvchilarga muayyan bilimlarni yetkazib berish, ular faoliyatini nazorat qilish va egallangan bilim, ko'nikma, malakalarni baholashga alohida etibor beriladi. Tabiiyki, ushbu jarayon o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'limiy jarayoniga nisbatan yangicha yondashuv, talim tizimini yanada takomillashtirish uni sifat jihatdan yangi pog'onalarga ko'tarish uchun zarur bo'lgan barcha imkoniyatlardan keng va har tomonlama foydalanishni taqozo etadi. Har bir pedagog ijodiy izlansa, ilg'or tajriba va metodlarni qo'llagan holda faoliyatni olib borsagina samarali natijalarga erishishi mumkin. Shu jumladan tarix fanidan dars o'tish jarayonida o'quvchilarni fanga qiziqtirish maqsadida o'qitishning noan'anaviy usullarini qo'llash zamon talablaridan biridir.

O'qituvchining dars jarayoni qiziqarli o'tishi uning mahoratiga bog'liq. Bu mahorat metodika deb nomlanadi. Demak metodikani qay tarzda va uslubda qo'llash faqat o'qituvchiga bog'liq bo'lib bir necha usullarini ko'rishimiz mumkin.

Metodika bu dars jarayonida o'quvchilarga atamalar uchun alohida daftar qildirib ularni yakka tartibda ishlashga o'rgatish. Darsda atamalarni yozib olishadi, va krassvord tarzida uyga vazifa beriladi hamda o'qituvchi uyga vazifani keyin darsda tekshirishi mumkin. Tarix darslarida krossvordlardan foydalanish – o'quv mashg'ulotining faol usuli bo'lib, bunday dars tashkil etishdan asosiy maqsad – darsda yuqori emotsional kayfiyatni yuzaga keltiruvchi o'yin ruhiyatini uyg'otishdir.

O'qitish metodlari maktabning faqat ta'limiy emas, balki tarbiyaviy maqsadlariga erishishda ham muhim vositadir. Ishonarli hikoya, isbotlovchi suhbat, o'quv munozaralari o'quvchilarda barqaror e'tiqod, yuksak axloq, milliy mafkurani tarkib toptirishga muhim hissa qo'shadi.

Ko'rgazmali metodlar – o'quvchilarga hayotda tezgina o'z o'rnini topishga yordam beradi. Amaliy metodlar – o'quvchi yoshlarni kasb tanlashga, o'quvchilarda jamiyatimiz ravnaqi uchun mehnat qilish ehtiyojini tarkib toptirishga yo'naltiradi.

Muammoli izlanish metodlari – shaxsning ijod qilish xususiyatini rivojlantirishga yordam beradi. O'qitish metodlarini xilma – xillash, butun dars davomida o'quvchilarda ishchanlik qobiliyatini saqlash uchun usullarni oqilona almashtirib turish foydalidir.

Maktab oldida turgan hozirgi vazifa o'quvchilarni kompyuter texnologiyasidan foydalanish malakalarini rivojlantirishdan iboratdir. Kompyuterlar ko'pgina o'quv predmetlarini mustaqil o'rganish uchun ham o'quvchilarga qator imkoniyatlar ochib beradi.

Biz o'qituvchilar dars jarayonida o'quvchilarga fanlardan chuqur va mustahkam bilim berish bilan birga, ularda bilimga qiziqishni, mehnat qilishga ehtiyojni tarbiyalab borishni ko'zda tutamiz. O'quvchilarning o'quv faoliyatini aktivlashtirishda ularni baholash metodlari hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini unutmasligimiz lozim.

O'qituvchining baholash usullari rang barang bo'lishi o'quvchilarni tarix faniga qiziqishini oshiribgina qolmasdan, o'zlashtirishni ham ko'tarishi tajribalardan aniqlangan. Rus tarixchisi akademik Vaginning ta'kidlashicha o'quvchilar fanni o'qituvchi talabi darajasida o'zlashtiradi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'qituvchi o'quvchilarni baholashga puxta va maqsadli tayyorgarlik ko'rish kerak. O'quvchilar uchun o'qituvchining baholash uslubi doimo sirli va qiziqarli bo'lishi lozim. Albatta, bu talablarga javob berish uchun o'qituvchi izlanuvchan va ijodkor bo'lmog'i lozim.

Kuchli hissiyot ostida faoliyat olib borish, zo'riqib yoki zerikib emas, shavqu -zavq, Ma'lumki,



tarix fani insonning fikrlash doirasini hamda tarbiyaviy taraflama hamda ajdodlarga bo'lgan hurmat va ehtiromni yanada o'stiradi, uning diqqatini rivojlantiradi, ko'zlangan (rivojlantirilgan) maqsadga erishish uchun o'zida qat'iyat va irodani tarbiyalaydi, o'zidagi tartib-intizomlilikni ta'minlaydi va eng muhimi uning tafakkuri kengayadi. Tarix olamni, dunyoni bilishning asosi bo'lib, tevarakatrofimizdagi voqea va hodisalarning o'ziga xos qonuniyatlarini ochib berishda ahamiyati juda katta bo'lib, vaholanki tarixiy bilimlarsiz kelajakni qurib bo'lmiydi, fanning rivojlanishini tassavur qilib bo'lmaydi.

Demak, tarix fani insonning fikrlash doirasini hamda tarbiyaviy taraflama hamda ajdodlarga bo'lgan hurmat va ehtiromni yanada o'stiradi, uning diqqatini rivojlantiradi, ko'zlangan (rivojlantirilgan) maqsadga erishish uchun o'zida qat'iyat va irodani tarbiyalaydi, o'zidagi tartib-intizomlilikni ta'minlaydi va eng muhimi uning tafakkuri kengayadi.

### **Adabiyotlar**

1. Golish L.V. "Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish". Ekspress qo'llanma. - Toshkent : 2001.
2. Tolipov O'.Q. Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari (o'quv qo'llanma). – T.: "Fan" nashriyoti, 2006y.



## TARIX DARSLARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

**Ibragimova Kamshat Oserbaevna**  
Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Nukus shahar 25-sonli maktabning  
Tarix fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada o'qituvchi o'quvchini faollikka chorlovchi savollar orqali sinfda ijodkorlik, izlanuvchanlik, qiyoslash, o'xshashlik va farqini topish singari xususiyatlarni rivojlantiruvchi muhitni yaratish va interfaol metodlarni qo'llash haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim-tarbiya, dars, o'quvchi, o'qituvchi, bilim, ko'nikma, malaka

Ta'lim tizimida tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, xalqimizning kelajakdagi mustaqil yurtimizning istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning bilim saviyasiga, tayyorgarligi, fidoiyligi, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Har bir o'quvchining komil inson bo'lib yetishishi to'g'ridan – to'g'ri o'z o'zini boshqarish xususiyatlariga bog'liq. O'quvchilar olgan bilimlarini shakllantirgan ko'nikmalarini noan'anaviy vaziyatlarda qo'llashni bilishlari kerak. Mustaqil ishlarning asosiy funksiyasi mustaqil o'z fikriga ega, o'z g'alar fikriga ko'r – ko'rona ergashmasdan, balki ularga tanqidiy taklif nazari bilan qaray oladigan shaxsni shakllantirishdir. Bunda tarix fani o'rni beqiyosdir.

Uzluksiz ta'lim tizimi, ya'ni o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi oldiga qo'yilgan zamonaviy talablarga muvofiq, mazkur ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, ilm-fanning so'nggi yutuqlarini amaliyotga joriy etish orqali ijodkor, ijtimoiy faol, yuksak ma'naviyatli barkamol shaxsni kamolga etkazish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi.

Ta'lim – tarbiyada samarali islohotlarni amalga oshirish talab etilayotgan hozirgi davrda esa ilmiy-texnika taraqqiyoti, yangi texnologik inqilob sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan jamiyat a'zolarini yetishtirib berish, yosh avlodni kasb-hunarga yo'naltirishda davlat xizmatini hamda oliy ta'limning mazmunini yaxshilashda pedagogik vositalarni qo'llash ta'limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo'l ochish, uning muhim tizimlarini yaratish kabi chet el tajribalarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kun ta'limining muhim jihatlaridan biri - bu ayni paytda ta'lim jarayoniga keng qamrovda joriy etilib borilayotgan interfaol usullaridir. Interfaol usul har bir o'quvchiga o'z bilimi, qobiliyatini keng namoyish qilish imkoniyatini yaratadi. Tarix darslarida amaliy mashg'ulotlarda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatmoqda.

Ilg'or pedagogik usullardan foydalanish o'qituvchiga ham ta'lim berish jarayonini engillashtirib bermoqda. Har bir usul belgilangan muayyan maqsadni echishda o'z o'rnida ishlatilsa u shubhasiz faoldir.

Pedagogik texnologiyalar o'quvchilar faolligining yuqori darajasini ta'minlash asosida oldindan belgilangan maqsadga erishishga qaratilgan. Interfaol usullardan ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi.

Dars mobaynida ma'lum nazariy bilimlarni o'quvchiga etkazish, unda ayrim faoliyat yuzasidan ko'nikma va malaka hosil qilish, ma'naviy sifatlarni shakllantirish, o'quvchi bilimini nazorat qilish hamda baholash o'qituvchidan yuksak mahorat va tezkorlik talab qiladi. Bu borada o'qituvchi darslarda foydalanishi mumkin bo'lgan ayrim pedagogik vositalar: ta'kidlovchi savollar bunda o'quvchining bergan savoliga qarab, uning fikrlash darajasini aniqlash mumkin. O'qituvchi alternativ, o'quvchini faollikka chorlovchi savollar orqali sinfda ijodkorlik, izlanuvchanlik, qiyoslash, o'xshashlik va farqini topish singari xususiyatlarni rivojlantiruvchi muhitni yaratadi. Savollar berish bilan birgalikda o'quvchilarda fikrlashga, majbur qiluvchi savollar tuzish qobiliyatini ham shakllantirib boradi.

Interfaol metod va usullarni sanab o'tamiz: aqliy hujum, klasterlar, mustaqil xat, Venn diagrammasi, harakatli ma'ruza, o'zaro ta'lim, muallifga savollar, «bilaman, bilishni istayman, bilib oldim» (BBB), insert, bahs-munozara, sinkveyn, qadriyatlar tizimi, debat, hamkorlikda izlanish, argumentlangan esse va boshqalar.

Bu usullar asosan bosqichlarga ajratilgan dars jarayonida qo'llaniladi (chaqiruv, anglash, fikrlash) va har birida o'qituvchi o'quvchilarga tegishli opshiriqlar beradi. Bu metodlar va usullar



o’quvchida kommunikativ qobiliyatning o’sishiga, o’quvchilar orasida hissiy aloqa o’rnatilishiga, muammoli vaziyatlar echimiga, guruhda ishlashni, o’zgalarning fikrini tinglay olishni va o’z fikrini mustaqil bayon etishni o’rgatibgina qolmasdan, unda o’ziga ishonch, bilimiga tayana olish, qiziqishlarining kuchayishiga, keng fikrlashga olib keladi.

Har bir usul o’quvchilarning tilni o’zlashtirishida, xususan, tinglab tushunish, gapirish, ifodali o’qishni va mavzu bo’yicha fikrini to’liq so’zlab berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, tarix darslarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va darsda o’quvchilarning so’z boyligini oshishiga va shuningdek kreativ fikrlashga yordam beradi.

### **Adabiyotlar**

1. Saydaxmetov N., Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. – T.: XTB RTM, 1999.
2. Saydaxmetov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: “Moliya iqtisod” nashriyoti, 2003.
3. Ishmammedov R. Tarbiyada innovacion texnologiyalar – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2010



## AMIR TEMUR DAVRIDA DAVLAT BOSHQARUVI MASALALARI

**Xatamova Aziza Maxammatqulovna**

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Jizzax viloyati  
yuridik texnikumi "Ommaviy-huquqiy fanlar"  
kafedrasida katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Amir Temur davrida davlat boshqaruvi masalalari o'rganilgan. Asosiy manba sifatida "Temur tuzuklaridan" foydalanilgan. Tuzuklarda berilgan manbalar tahliliy o'rganilib, Amir Temurning davlatni boshqaruvidagi asosiy jihatlari ko'rsatib berilgan. Shuningdek, maqolada Amir Temurning davlat boshqaruvida o'z davrining siyosiy lider bo'lganligi ham ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Amir Temur, davlat boshqaruvi, Temur tuzuklari, adolat, adovat, kengash, mashvarat, qurultoy, harbiy yurishlar, raiyat, saltanat, markazlashgan davlat, o'zbek davlatchiligi tarixi, tadbirkorlik, dono vazir, islomiy qadriyatlar.

Amir Temur qurgan davlat, avvalo, o'zida siyosiy tizimning eng yaxshi shaklini mujassamlashtirishi lozim edi. Chunki uning nazarida boshqarish ma'muriyatini tashkil qilmay va uning faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'ymay turib, jamiyatni boshqarish, uning hayotiga islomiy qadriyatlarni singdirish, xizmatni joriy qilish, to'ra va tuzukni mustahkam tutish mumkin emasdi.

Amir Temur davlati, aytish mumkinki, Somoniylar, Qoraxoniylar, g'aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar davlat tizimini qaytadan jonlantirdi, uzoq yillik qaramlikdan so'ng Turkistonning davlat mustaqilligini tikladi. O'zigacha bo'lgan o'zbek davlatchiligidan farq qiladigan markazlashgan buyuk davlat tizimini yaratdi. U davlat rahbarining qattiqqo'l, tadbirkor, nihoyatda adolatli, lekin rahmdil, insonparvar, halol, pok bo'lishini ko'rsatib, hayotda adovat emas, balki adolat yengadi, deb ko'rsatdi.

Tuzuklarda uning bu boradagi ijtimoiy-siyosiy, huquqiy qarashlari chuqur aks etib, vazirlar, amirlar, devonbegi, viloyatlardagi devonlarni, beklarni tanlash va joy-joyiga qo'yishda ularning nasl-nasabiga, aql-farosatiga, xalqparvarligiga, sabr-toqatlilik, tinchliksevarlik, adolatparvarlik fazilatlariga, ko'tarinki ruhiy holatiga, ziyrakligiga, malakasi va odamlar bilan murosa qilish fazilatlariga katta e'tibor bergan.

U davlat hokimiyatini «zo'ravonlik bilan emas, balki o'z hukmining ta'sirchanligi va adolat bilan boshqarish»ga rioya qilgan. O'z vazirlaridan quyidagi xislatlarga ega bo'lishni talab etgan: «birinchisi, asllik, toza nasllik; ikkinchisi, aql farosatlilik; uchinchisi, sipohu raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalalik; to'rtinchisi, sabr, chidamlilik va tinchliksevarlik». Bunday xislatlarga ega bo'lish, albatta, davlat boshqaruvida, turli murakkab holatlarni bartaraf etishda qo'l keladi. «Bunday vazirga to'rt imtiyoz: ishonch, e'tibor, ixtiyor va qudrat berilsin» – deydi, Amir Temur. Ya'ni uni o'z mansabiga tayinlab, uni davlat boshqaruv vakolatlari bilan ta'minlashni uqtiradi. «Davlatu saltanat, – deb davom etadi u, – uch narsa: mulk, xazina va lashkar bilan tirikdir. Dono vazir bularning xar uchalasini tadbirkorlik bilan yaxshi ahvolda, saranjom tutadi».

Amir Temur davlatni idora etishda turli tabaqalar va toifalar bilan birgalikda bamaslahat ish ko'rib, siyosat yurgizgan. «Davlat saltanat ustunlarini o'shalar bilan quvvatlab, majlislarni shular bilan ziyatladim»–deb, yozadi u. Saltanatim martabasi bo'lmish to'ra-tuzuklar va qonunqoidalarni ham shu o'n ikki toifaga bog'lab tuzdim. Bu o'n ikki toifani saltanatim falakining o'n ikki burji va davlatim korxonasining o'n ikki oyi deb hisobladim»–deydi, Temur.

Albatta, Temur ularning har biridan o'z maqsadi o'rnida va yo'lida foydalanganligi ma'lum. U o'zining siyosatini amalga oshirishda, davlatni boshqarishda ulamolar, ilm-fan ahllari va yuqoridagi tabaqalar vakillariga qattiq tayangan. Buni o'zining olimulamolar bilan suhbatlaridan birida so'zlagan nutqidan ham ko'rishimiz mumkin: «Fan va dinning mashhur kishilari o'z maslahatlari bilan podsholarga yordam berib kelganlar. Sizlar esa menga nisbatan bunday qilmayapsizlar. Mening maqsadim mamlakatda adolat o'rnatish, tartib va tinchlikni mustahkamlash, fuqaroning turmushini yaxshilash, yurtimizda qurilishni quchaytirish, davlatimizni rivojlantirishdir. Sizlar bu ishlarni amalga oshirishda menga o'z maslahatlaringiz bilan ko'maklashishlaringiz kerak. Mamlakatning ahvoli, devonning suiiste'mol qilinganligi va qilinayotganligi, oddiy odamlarning joylardagi hokimlar tomonidan qisib qo'yilishi kabi hollar ham mendan ko'ra sizlarga ayondir.



Shular haqida ma'lumot bersangizlar, bu kabi adolatsiz ishlarni bartaraf etuvchi hamda shariat va qonunlarga muvofiq chora-tadbirlarni aytasangizlar yaxshi bo'lur edi», – deydi.

Amir Temur ana shu tabaqalarning xizmatidan ularning ijtimoiy mavqeiga qarab foydalangan hamda ularni taqdirlab turgan. Uning davrida feodal mulkchilik rivojlangan, jumladan, askar boshi, shoir va katta martabali ruhoniylarga, devon xizmatchilariga suyurg'ol tariqasida mulklar in'om qilib berilgan, alohida xizmat ko'rsatgan beklarga, lashkarboshilarga beriladigan yer, suv mulki yoki bo'lmasa ma'lum joydan tuman, viloyatdan o'z foydasiga soliq yig'ib olish huquqini beradigan – suyurg'ol mulki vujudga kelgan.

«Tuzuklar»da ko'rsatilishicha, davlatni boshqarishda kengashish, maslahat hamda tadbirkorlikka katta ahamiyat berilgan. «Davlat ishlarining to'qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilichdir» – deb, yoziladi «Tuzuklar»da. Shu haqiqat shubhasizki, «Temur tuzuklari»da davlatni boshqarishdagi deyarli bosh g'oyalardan biri sifatida kengash, mashvarat va tadbirkor bo'lishi ko'rsatilgan. Bunda u, albatta, eng avvalo, o'z yaqinlari, zodagonlar, yirik amaldorlar bilan kengashni nazarda tutgan. Bunga qurultoylar, shuningdek, harbiy yurishlar oldidan qo'shin boshliqlari bo'lgan amirlar va amirzodalar (o'zining o'g'illari) bilan o'tkazgan kengashlarini kiritish mumkin. Faqat boshqarishda emas, harbiy harakatlarda ham, kengashlarga, ayniqsa, katta ahamiyat berilgan. «Yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir to'g'ri kengash bilan amalga oshirish mumkin», degan so'zlar bunga guvohdir. Amir Temur huzurida maslahat, kengash organlariga qurultoy va davlat kengashini ko'rsatish mumkin. Qurultoy - bu Temur davrida oliy feodal tabaqalarining kengashi bo'lib, vaqti-vaqti bilan mamlakat va davlat hayotining muhim masalalarini hal etish uchun chaqirib turilgan. Bu Temur siyosatining o'ziga xosligini ko'rsatadi. Tarixiy manbalarga ko'ra, Balx, Qarshi va Qorabog', Samarqandda qurultoylar chaqirilgan. Buni Sharqqa xos marosim, hatto millat majlisi deb atash mumkin.

«Tuzuklar»ni tahlil etish shuni ko'rsatadiki, Amir Temurning davlatni tuzish, uni boshqarishning bosh qoidalari prinsip va tamoyillari haqidagi quyidagi asosiy fikrlarni o'zida mustahkamlagan, bularga quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Raiyat bilan davlatni birlashtiruvchi kuch sifatida, musulmon dinini qo'llab-quvvatlash, uni rivojlantirish, himoya qilish, musulmon huquqi (shariat)ga amal qilishda davlat va din birligiga asoslangan.

2. Kengash, mashvarat, maslahat qilish, sabr toqat bilan murasayu madora qilish – demokratik boshqarish tamoyili. Bunga «Tuzuklar»dagi «Saltanat ishlarining to'qqiz ulushi mashvarat, tadbir va kengash, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bog'liq», «Ishlarimning barisida avval kengash – maslahat qo'lladim», «Har kimdan kengash so'rardim», degan fikrlar isbot bo'la oladi. Bu tamoyil, yuqorida keltirilganidek, Qurultoy, Davlat kengashi, shariat peshvolari va olimlaridan maslahat olish, harbiy san'atni mukammal biladigan askarboshilar bilan yakka tartibda kengashish orqali amalga oshirilgan.

3. Davlat hayotiga qonunchilikni joriy etish, unga qattiq amal qilish – qonunchilik tamoyili. Ushbu tamoyil «Tuzuklar»da «Saltanat binosini islom dini (shariat), to'ra va tuzuk asosida mustahkamladim», «Saltanatni boshqarishimda uchragan har qanday voqea va ishni to'ra va tuzuk asosida bajardim», kabi iboralar, jumladan orqali ifoda etilgan.

4. Davlat hokimiyatini amalga oshirishda yakkaboshchilik asosida qat'iy turib hal etish, hokimiyatning bo'linmasligi, ya'ni yakka hokimlik tamoyili «Tuzuklar»dagi: «Saltanat ishlarida, hukm yurgizishda podshoh o'zini yagona bilib, hech kimni o'ziga saltanat sherigi qilmasin», – degan so'zlari orqali ifoda etilib, mustahkamlab qo'yilgan.

5. Adolat va insof tamoyili. «Adolatga talpindim va jabr-zulmdan uzoqroqda bo'lishga intilishda» hamda «Gunohkorga ham, begunohga ham rahm qilib, haqqoniyat bilan hukm chiqarish»da o'z tasdig'ini topgan.

6. Davlat idora etish tashkilotlarining kichik, oddiy, arzon, tezkorligi – ya'ni davlat boshqaruvining iqtisodiy tejamkorligi tamoyili. Tuzuklarda ushbu asosiy qoidalar deyarli uning har bir joyida uchraydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Temur tuzuklari. – Toshkent. 1996.
2. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – Toshkent: “O'zbekiston”, 1996.
3. Xerman Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. – Toshkent: “Adabiyot va san'at”, 1990.



## ENG QADIMGI HAYKALTAROSHLIK SAN'ATI NAMUNALARI.

**Masharipova Aziza**

Urganch shaxar 26-son  
maktabning tarix fani o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yurtimizdagi eng qadimgi san'at namunalari, haykaltaroshlik asarlari va ularning yurtimiz tarixidagi ahamiyati aytib o'tilgan.

**Kalit so'zlar.** Varaxsha, Afrosiyob, Xolchayon, Tuproqqal'a, Bolaliktepa, So'g'd terrakotasi, Ayritom, Dalvarzintepa.

O'zbek xalqi o'zining qadimiy yuksak madaniyati va san'ati bilan faxrlansa arziydi. Buni O'zbekiston hududida olib borilgan arxeologik qazilma ishlari yaqqol isbotlaydi. Xususan, Varaxsha, Afrosiyob, Xolchayon, Tuproqqal'a, Bolaliktepa, Ayritom, Dalvarzintepa, Ko'yqirilganqal'a, Ajinatepa, Teshikqala va boshqa bir qator qadimiy shahar, qal'a, ibodatxonalar xarobalaridan togshilgan yuksak badiiy saviyada yaratilgan devoriy rasm, haykaltaroshlik asarlari, amaliy san'at buyumlari fikrimizning dalilidir. Bu noyob topilmalarni izlab topishda L.I.Rempel, G. APugachenkova, L.I. Albaum, B.A.Bulatov, Y.G'ulomov, S.P.Tolstov kabi arxeolog va san'atshunos olimlar samarali mehnat qildilar.<sup>1</sup>

Qo'yqirilganqal'a. Miloddan avvalgi III—IV asrlarga oid yodgorlikdir. U Qoraqalpog'istonning To'rtko'l shahridan 22 km uzoqliqda joylashgan.

Unda shohlar, askarlar uchun alohida xonalar, g'alaba zallari bo'lgan. Ibodatxona binosi ikki qavatli bo'lib, diametri 44, 4 m. Balandlik 9,5 m ni tashkil etadi. Bino ichida 8 ta gumbazli xona bo'lib, uvda devoriy rasmlar, shuningdek, zo'r mahorat bilan ishlangan sopol tobutlar, haykalchalar, devoriy naqshlar topilgan.

Saroy zallarida devoriy rasmlar bilan bir qatorda ganchdan tayyorlangan rangli relyeflar, haykallar uchraydi. G'alaba zalidaga bir relyefda podsho va uning atrofidagi a'yonlar aks ettirilgan, boshqa xonadagi relyeflarda esa kiyik, anor, shuningdek, tok novdalari o'z ifodasini topgan.

Varaxsha — Buxoro shahridan 40 km g'arbda joylashgan qal'a xarobasi. Arxeologik qazilmalar shuni ko'rsatadiki, mazkur hududda miloddan avvalgi ming yil davomida odamlar yashagan va bu yerlarda tasviriy san'at nihoyatda rivoj topgan. Varaxshadagi eng katga bino 9 gektarni egallagan va balandligi 10 metrni tashkil etgan. Bu binoda hukmdorlar saroyi va ibodatxona, askarxona, aslaha xonalar bo'lgan. Saroylardagi xonalar devoriy rangasvir asarlari, haykallar va har xil rasmlar bilan bezatilgan. (1-rasm) Ayritom - Termiz shahridan 18 km uzoqlikda, Amurdaryo qirg'og'ida joylashgan qadimiy shahar bo'lib, u 1932 yilda aniqlangan. Bu yerda olib boryatgan qazish ishri jarayonida turli haykal va frizlar topilgan. Ularda chiltor, qo'shnay, ud, nog'ora chalib turgan ayollar va erkaklar tasvirlangan. Bu frizlar ishlanish uslubi va kompozitsiyasi jihatidan Shimoliy Hindiston haykatgaroshligiga juda o'xshab ketadi. Bu hol I—II asrlarda Buddha dinining O'rta Osiyoga kirib kelishi va tarqalishi bilan izoxlanadi. Ular o'zining badiiyligi jihatidan nihoyatda yuqoridir.

1938 yilda Ayritomdan I—II asrlarga oid buddaviylar ibodatxonasi ham topilgan. U yerda maxsus hujralar, budda haykali ham bo'lgan. (2-rasm) Dalvarzintepa — Andijon viloyatining chekka qismidagi Dalvarzin qishlogada joylashgan turarjoy xarobasi hisoblanib, u 1952 yilda topilgan. Yer osti qazilganda, u yerdan bronza quyish ustaxonasi, tosh yotqizilgan ko'chalar, g'alla omborlari, turli uy jixozlari, sopol buyumlar, naqshli idishlar va odam haykallari topilgan.<sup>2</sup>

Topilmalar ichida ganchdan yasalgan ayol boshi eramizning II asrida yaratilgan, deb taxmin qilinadi. Dalvarzintepada qadimda qishloq xo'jaligi, metallga ishlov berish bilan birga tasviriy va amatay san'at ham keng rivojtangan (3-rasm). Erta o'rta asrlar (VIII-IX asrlar) So'g'd terrakotasi tarkibi yo'nalishi jihatidan rang-barangdir. Masalan chamberakli ikki insonning bosh qismini olaylik. Biribo'yniga idish osib ilgan (tepa qismida suyuqlik quyiladigan teshik) boshqasi bir tomonlama relyef (soqol qo'ygan). Ikki bosh ham bir odam uchun ishlangan bo'lib, faqat turli kompozitsion fikrda ifodalangan. Yuzlari nimadandir hayojonga tushgan ko'rinishda tasvirlangan bosh ayniqsa hayratlidir. Orqada tasvirlangan bosh esa nihoyatda emotsional holatda va ko'zlari

<sup>1</sup> Abdullayev N.U. "San'at tarixi". 1-tom. Toshkent. O'qituvchi, 1986 yil.

<sup>2</sup> Abdullayev N.U. "San'at tarixi". 1-tom. Toshkent. O'qituvchi, 1986 yil.



zonli tarzda tasvirlangan.

Shunday qilib O'zbekiston hududida yashagan qadimgi xalqlar san'ati turli tarixiy bosqichlarda o'zining turlicha rivojlanish va turg'unlik davrlarini boshdan kechirganligining guvohi bo'lamiz. Bir so'z bilan aytganda xalqimizning qadimiy tsaviriy sanati tarixida haykaltaroshlik ham alohida o'rin tutib, bugungi san'atimizning baquvvat tag zaminga ega ekanligini ko'rsatadi.



**Jayron. Varaxsha. VIII asr.**



**Arfa chalayotgan ayol. Friz. Ayritom. I-II asrlar.**



**Ayol boshi. Dalvarzintepa. II-asr.**

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 27-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(3-қисм)**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусахҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.04.2021

**Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz**  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000